

**O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasiga oid targ‘ibot ishlari, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish va moliyaviy savodxonlik masalalari bo‘yicha Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida o‘tkazilgan yig‘ilish
BAYONNOMASI**

28-noyabr 2025-yil

Samarqand sh.

Raislik qiluvchi

X.I.Turdibekov –Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Yoshlar masalalari bo‘yicha prorektor

Taklif etilganlar:

G.T.Qodirova- O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi raisining Davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi

A.B.Hamroqulov - Qo‘mitaning Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari
Qatnashdilar:

Filialning Buxgalateriya hisobi va moliya fakulteti talabalari, OAV vakillari (jami ishtirokchilar soni 116 nafar, shundan 41 nafar ayollar).

KUN TARTIBI:

Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish va moliyaviy savodxonlik masalalari bo‘yicha aholi va yoshlarga tushuntirishlar berish

Yig‘ilishni filialning ochib berdi hamda tadbir qatnashchilarini kun tartibidagi masalalar va ma’ruzachilar bilan tanishtirdi. So‘ng kun tartibidagi masalalar bo‘yicha so‘zni O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi raisining Davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi Go‘zal Toshenboyevna Qodirovaga berdi.

G.Qodirova o‘z so‘zida O‘zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi Konstitutsiyasi va uning 65-moddasi mazmun-mohiyati bo‘yicha yoshlarga tushuntirishlar berib o‘tdi.

Xususan, fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi, Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratishi, iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlashi asosiy Qomusimiz bilan belgilab qo‘yilganligini aytib o‘tdi.

Shuningdek, moliyaviy savodxonlik mavzusidagi taqdimot materiallari bilan tanishtirdi hamda iste’molchilar huquqlarini himoya qilishni ta’minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar, iste’molchi va sotuvchining (ijrochi, ishlab chiqaruvchining) asosiy huquq va majburiyatlari haqida ma’lumot berdi.

Bundan tashqari, talabalarga German Sparkassenstiftung (Germaniya) tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilayotganligi, iste'molchilar moliyaviy xizmatlardan foydalanishda nimalarga e'tibor qaratishi lozimligi, shaxsiy budjet va xarajatlarni rejalashtirish, kredit munosabatlari, kafillik, sug'urta masalalari, shartnoma shartlarini o'rganib chiqish lozimligi, elektron va to'lov xizmatlardan foydalanishda bank kartalari bilan operatsiyalarga oid maxfiy kodlarini sir saqlash zarurligi, shaxsiy ma'lumotlarni barchaga oshkor etmaslik kabi masalalar bo'yicha tushuntirishlar berdi.

So'ng yoshlarga "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan iste'molchilar quyidagi huquqlarga ega ekanligi belgilanganligi, ya'ni;

tovar (ish, xizmat) haqida, shuningdek, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) haqida to'g'ri va to'liq ma'lumot olish;

tovar (ish, xizmat)ni erkin tanlash va uning tegishli darajada sifatli bo'lishi;

tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo'lishi;

hayoti, sog'lig'i va mol-mulki uchun xavfli nuqsoni bo'lgan tovar (ish, xizmat), shuningdek, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning g'ayriqonuniy harakati (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan moddiy ziyon, ma'naviy zararining to'liq hajmda qoplanishi;

buzilgan huquqlari yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilinishini so'rab sudga, boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat etish huquqlariga egaligi aytib o'tildi.

Tadbir davomida A.Hamroqulov so'z olib, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida Samarqand viloyatida amalga oshirilayotgan ishlar, iste'molchilarning asosiy muammolari va ularning yechimi, iste'molchilar o'z huquqlari buzilishiga yo'l qo'ymasligi uchun zarur choralar haqida gapirdi.

Tadbirda yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savol va masalalar bo'yicha tegishli tushuntirish va tavsiyalar oldilar.

Tadbir erkin, savol-javob, ochiq fikr almashish yo'li bilan o'tkazildi.

Tadbir soat 12:25 da boshlanib, soat 13:25 da yakunlandi.

Tashkilotchilar bilan ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun bunday tadbirlarni muntazam ravishda o'tkazib borishga kelishib olindi.

Yig'ilish raisi:

Yig'ilish kotibi:



X.I.Turdibekov

T.A.Yuldashev